

## FRANSUZ SO'ZLARIDA ABREVEYATURA USULINI QO'LLASH

*Ilmiy izlanuvchi: Adham Abduxoliqov*

Har bir tilda uzun va talaffuz qilishda qiyinchilik to'g'radigan so'zlar mavjud. Bundan tashqari nutq jarayonida doim birgalikda qo'llaniladigan birikmalar mavjud. Shuning uchun bu holat yuzasidan kelib chiqqan holda fransuz tilida so'z yasashning yana bir usuli mavjud, bu uzun so'zlarni va doimiy birgalikda qo'llaniladigan birikmalarni qisqartirib yangi so'z yasovchi abreveyatura usuli hisoblanadi.

Til odamlar o'rtasidagi muloqot jarayonini amalga oshiradi, ya'ni til odamlarga xizmat qiladi. Shuning uchun abreveyatura usulidan foydalaniladi. Bu til hodisasini og'zaki nutqda ko'p uchratish mumkin. Fransuz tilida bu til

hodisasi XIX asrning oxirlarida keng omma tomonidan keng qo'llanila boshlandi. Fransuz tilida bu so'z yasash usulining o'ziga xos bir qancha turlarini ko'rish mumkin. Ularning ichida eng ko'p qo'llaniladigani qo'shma so'zlarning ikkinchi qismini tashlab yuborish holatidir.

#### MASALAN :

automobile > auto  
 photographe > photo  
 microphone > micro  
 locomotive > loco  
 baromètre > baro  
 phonographe > phono  
 dactylographe > dactylo  
 méropoltain > métro

So'z yasashning bu turi Parij va uning atrofida yashovchi aholilar og'zaki nutqida ko'p ishlatiladi ya'ni usha hudud aholisi nutqiga tegishlidir, lekin bu usul sekin-asta adabiy til tarkibiga ham kirib kelmoqda.

Bundan tashqari fransuz tilida abreveyaturaning yana bir boshqa turini ko'rishimiz mumkin, bunda so'zning oxirgi chambarchas bog'langan qismini qoldirish bilan xarakterlidir.

Masalan :

anarchiste > anar  
 accumulateur > accu  
 baccalauréat > bac  
 imperméable > imper  
 philosophie > philo  
 réactionnaire > réac  
 linoléum > lino  
 collaborationiste > collabo  
 faculté > fac

Fransuz tilida ba'zan so'zlarning oxirgi bug'unini o'rniga bir "o" ni qo'shimcha sifatida qo'shilish holatini uchratish mumkin. Lekin bu holat boshqa tillarda kamdan-

kam hollarda uchraydi, o'zbek tilida esa bu holat umuman uchramaydi. Fikrimizning isboti sifatida fransuz tilidagi ushbu lisoniy jarayon natijasi bo'lgan bir nechta misollar kiltirib o'tmoqchimiz :

camarade > camarò

apéritif > apéro

mécanicien > mécano

populaire > populo

métallurgiste > métallo

Montparnasse > Montparno

convalescent > convalo

pharmacien > pharmaco

Fransuz tilida “ablation des syllabes finales” ya'ni so'zning oxirgi bug'inlarining bir qismini olib tashlash jarayoni apocope deb ataladi. So'zning dastlabki bug'unlarini tashlab ketish esa aphérèse deb ataladi. Masalan :

capitaine > pitaine

Americain > Ricain

municipale > cipale ( garde )

Derivatsiya yo'nalishi bo'yicha bu qat'iylik, affiksial jarayonlardan farqli o'laroq, konversiya bilan hosil qilingan leksemaning rasmiy ravishda lotin sifatida belgilanmaganligidan kelib chiqadi. Kerleroux shunday vaziyatni quyidagicha umumlashtiradi: "Affiks belgisi bo'lmaganda, kategoriya aloqasi yo'nalishi asos bo'lib xizmat qiladigan so'z shaklida va qurilgan, homosemik ma'noda aniq emas. Konversiyaning yo'nalishi masalasi bu savol yuzaga kelmaydigan boshqa leksemalarning shakllanish jarayonlaridan konversiyani aniq ajratib turadi, chunki bu holda uzunlik argumenti ikkita leksemadan qaysi biri kelib chiqqanligini aniqlashga imkon beradi.